



XIX ASR BOSHLARIDA NODIRANING O‘ZBEK TILI TARIXIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

“Adabiy portret” to‘garagining a‘zolari

Kengesbaeva Aray Karasay qizi

Ipakchilik va tutchilik yonalishi

1-kurs talabasi 25-80 guruh,

Qayumjonova Sog‘diyona Nizomjon qizi

Veterinariya sanitariya ekspertizasi yo‘nalishi

1-kurs talabasi 25-128-guruh

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

[*malika122yun@gmail.com*](mailto:malika122yun@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili taraqqiyoti uzoq tarixiy jarayon ekanligi haqida so‘z boradi. U asrlar davomida ko‘plab bosqichlardan o‘tganligi. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, asosan O‘rta Osiyo hududida rivojlangan. Xususan, o‘zbek adabiyotining yirik vakilasi, shoira Nodiraning o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotidagi o‘rni haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, til taraqqiyoti, gap, kalom, guftor, so‘z, gapirish, takallum, so‘z, til, nutq.

РОЛЬ НАДИРЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЕ XIX ВЕКА.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что развитие узбекского языка представляет собой длительный исторический процесс. На протяжении веков оно прошло множество этапов. Узбекский язык принадлежит к



тюркской языковой семье и развит преимущественно в Средней Азии. В частности, высказывается мнение о роли великой представительницы узбекской литературы поэтессы Надиры в историческом развитии узбекского языка. Подобно тому, как каждый цветок имеет свое выражение на клумбе литературы, так и произведения этих поэтов, состоящие из жизненных уроков, являются продуктом художественного мышления будущего поколения.

Ключевые слова: Средняя Азия, Лутфий, Атоий, Саккокий, Алишер Навои, развитие языка, речь, слово, слово, говорение, слово, дискурс.

THE ROLE OF NODIRA IN THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY.

Abstract: This article discusses the development of the Uzbek language as a long historical process. It has gone through many stages over the centuries. The Uzbek language belongs to the Turkic language family and developed mainly in Central Asia. In particular, the article discusses the role of the great representative of Uzbek literature, the poetess Nodira, in the historical development of the Uzbek language. Just as each flower in the literary bouquet has its own fragrance, the works of these poets, which contain life lessons, are a product of artistic thought for future generations.

Keywords: Central Asia, Lutfi, Atoi, Sakkoki, Alisher Navoi, language development, speech, word, speech, takallum, word, speech.

O'zbek tili taraqqiyoti uzoq tarixiy jarayon. U asrlar davomida ko'plab bosqichlardan o'tgan. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, asosan O'rta Osiyo hududida rivojlangan. Bugungi kunda o'zbek tili nafaqat davlat tili sifatida rasmiy doiralarda, balki madaniyat va ilm-fan sohalarida ham faol qo'llanilmoqda. O'zbek tilida ko'plab adabiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratilishi barobarida



ommaviy axborot vositalarida ham faol ish yuritmoqdalar. O‘zbek tili – o‘zbek xalqining tilidir. Uning rivojlanishi xalqning taqdiri va salohiyati bilan bog‘liq hodisa sanaladi.

XVIII asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek tilining rivoji bir qator muhim tarixiy va madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu davrda O‘rta Osiyo hududida turli siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz berdi. XVIII asrda O‘rta Osiyo hududida Buxoro, Xiva va Qoqon xonliklari kabi mustaqil davlatlar mavjud edi. Har bir xonlikning ish yuritishida o‘z madaniyati va tili bo‘lib, shubhasiz, o‘sha davr tili taraqqiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. XVIII asrda o‘zbek adabiyotida ko‘plab shoir va shoirlar yuzaga chiqdi. Ularning asarlari o‘zbek tilining boyishiga va taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Masalan, Po‘latjon Qayyumiy ta’biri bilan aytganda, Qo‘qon xonligida adabiy muhit shakllandi. O‘sha davrda mashhur bo‘lgan shoirlar va shoirlar o‘z asarlarida o‘zbek tilining go‘zalligini namoyish etishdi. [1-7].

XIX asr boshida o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin kabi shoirlarning ijodiy faoliyati juda muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, Nodira o‘z davrida ko‘plab ayollar maktablarini shakllanishiga sababchi bo‘ldi. Ularning faoliyatini qo‘llab quvvatladi. “Tarixiy muhojiron” asarida aytilishicha Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin va Nodira kabi shoirlar maktablar ochib, minglab shogirdlar yetishtirishgan. Ularga adabiyot, riyoziyot kabi fanlardan dars berishgan. Tahsil olgan qiz-juvonlarning ko‘pchiligi ijodkor edi va she’rlar yozishgan. Shu asnoda, o‘z davrining ma’naviy yetuk kishilariga aylanganlar. Mazkur tarixiy jarayonda ular ham o‘zbek tilining rivojiga katta hissa qo‘shishgan.

Nodira o‘z asarlarida o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an’analari va hissiyotlarini ifodalagan. Uning ijodi, shuningdek, o‘zbek tilining poetik imkoniyatlarini namoyon etadi va yangi uslubiy yo‘nalishlarini rivojlantiradi. Nodiraning asarlari ko‘plab avlodlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan va u o‘zbek adabiyotida muhim bir siymo sifatida tanilgan.



Bo'yla kim nutqing ravon baxshing erur poki malih,

Tilg'a kelturma odob bila iboroti qabih.

Yuqoridagi baytda tilingga odobsiz, axloqsiz so'zlarni keltirmagin va chiroylik nutq sening ziynating deydi. Bizning zamonamizda "Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling" degan mazmundagi xalq iborasi bor. Shoiraning sherlari o'z davrida mashhur bo'lib, oddiy odamlar tiliga ko'chishi asnosida o'z-o'zidan tarixiy shakllanish jarayoniga qo'shilgan.¹ Nodira so'z qudrati haqida quyidagi baytda so'zning bir necha ma'noga ega bo'lgan ma'nodoshlaridan foydalanib, serma'nolilik kashf etgan.

To'tiyi nutqim erur gulshani guftor ichra,

So'zda shakar shikanu nutqi takallumda fasih.

Nutq-gap, kalom.

Guftor-so'z, so'zlash, gapirish.

Takallum-so'z, nutq.

Shikan- buzuvchi, sindiruvchi, buralish.

Fasih-chiroyli, aniq so'zlovchi, so'z ustasi, fasohatli(nutq).

Shuningdek, Nodiraning she'rlari o'zbek tilining lisoniy boyligini va estetik jihatidan yanada rang-barangligini namoyon etadi. U o'z she'rlarida turli uslublarni, obrazlarni va tilning nozikliklarini xalqona, sodda tilda ifodalaydi. Bu badiiylik esa, uning ijodini nafaqat zamondoshlariga, balki kelajak avlodlarga ham qadrli qiladi.

¹Po'latjon Qayumov. "Tazkirai Qayumiy" /Mas'ul muharrir: L. Qayumov/. -T;" O'zRFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi" 1999. 720-bet.



Nodiraning she'rlarida tasvirlangan tasvirlar – metaforalar va tilining boyligi orqali namoyon bo'ladi. U hayotning turli jabhalarini badiiy ifodalashda nihoyatda noziklik va ustalik bilan yondashgan. Uning asarlarida tasvirlar tabiatni va inson his-tuyg'ularini jonli aks ettirgan. Metaforalar orqali badiiy fikrlarni kuchaytirish uchun ishlatiladigan chuqur ma'noli so'z birikmalari bu – tilning jilvadorligidir.

Nogohon ko'rsa xiromingni bo'lur sharmanda,

Bog'bon ayladi sarvini qaddingdin tarjih.

Uning she'rlaridagi badiiy tasvir vositalari, so'z qo'llash usulining poetik bo'yoqlari rang-barangdir. “Yor kerak oshiqa, menda sevar yor yo'x” g'azali 7 baytdan iborat bo'lib, 5-baytida shoira shunday deydi:

G'unchau gul teng emas la'ling ila og'zingga,

Gulda shakar xandau g'unchada guftor yo'x.²

Quyidagi tashbih baytda tasvirlayotgan g'uncha bilan gulni yorning la'li bilan og'ziga qiyoslab bo'lmasligini, chunki gulda – shirin tabassum yo'qligi, g'unchada esa so'zlashishga, suhbat qurishga – shirin suhanning yo'qligini aytadi. Mashuqaning labi bilan og'zini gul bilan g'unchaga tenglab bo'lmasligini badiiy ifodalaydi. Vositai tashbih-o'xshatilish belgisini mohirona qo'llay oldi

U o'z she'rlari orqali zamonasining ijtimoiy-siyosiy muammolarini, ayolning jamiyatdagi o'rnini va uning erkinligini yoritishga intilgan. Uning asarlarida ijtimoiy masalalar, ta'lim olish imkoniyatlari, shaxsning ichki kurashi, muhabbat va hayot masalalari chuqur tafakkur bilan yozilgan.

² M. Nurutdinova. “Nodira lirikasida bahor tarannumi”. //Til va adabiyot ta'limi. (O'zbekiston Respublikasi OAK O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014- yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan). Jurnal Toshkent, 2023-yil. 2-son.



Umuman olganda, Nodiraning ijodi o‘zbek tili va adabiyotining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi va uning ijodi XIX asrda Qo‘qon xonligi davrida o‘zbek madaniyatining yuksalishiga xizmat qilgan.

Nodira nafaqat o‘z zamonasining ovozi bo‘lgan, balki kelajak avlodlarga ham o‘z fikrlarini yetkazish uchun kuchli vosita yaratgan shoiradir. Uning asarlari bugungi kunda ham aktual bo‘lib qolmoqda.

Qo‘qon tarixchilari XIX asrning boshlarida yaratgan tarixiy asarlarda, jumladan, Fazliy Farg‘oniyning “Umarnoma” asari, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiyning “Shohnomayi nusratpayom” asari, Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron” kabi asarlari hamda XIX asr o‘rtalarida yozilgan tarixiy asarlarda, masalan, Uvaysiyning “Voqeoti Muhammad Alixon” asari, Mutribning “Shohnomayi Mutrib”, Andalibning “Shohnomyi devona Andalib” tarixiy asari, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Abdulg‘afur Munshiyning “Zafarnomayi Xudoyorxon”, Mullo Shamsiyning “Jangnomayi Xudoyorxon”, tarixchi olim Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy va boshqa tarixchi olimlar asarlarida Qo‘qon xonligi davrini taraqqiy etgan davrida yashab ijod etgan shoir va adiblar, badiiy ijodga aloqador bo‘lgan shoir va shoiralar o‘z asarlari orqali o‘zbek tilining go‘zalligini namoyish etishganligi bitilgan. O‘sha vaqtda Qo‘qon tom ma’noda shoirlar, fozillar shahriga aylangan davr edi. Shu bois, o‘zbek tilining taraqqiyoti shu davrda anchagina rivojlandi, deya olamiz.

Bu davrda siyosiy beqarorlik va urushlar til rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ammo, shu bilan birga, madaniy aloqalar va savdo-sotiq orqali rasmiy hujjatlar va og‘zaki nutqda o‘zbek tili rivojlandi. Fors-tojik tillarida ijod qilish an’anaga aylandi. XVIII asrda o‘zbek tili turkiy tillar oilasidagi boshqa tillar bilan yaqin aloqada bo‘lib, yangi so‘zlar va ifodalar qabul qilindi. Ushbu davrda o‘zbek tili arab alifbosida yozilgan. Arab alifbosi o‘zbek tilining fonetik xususiyatlariga mos



kelmasa-da, u adabiyot va diniy matnlarda keng qo'llanildi. Qadimdan o'zbek xalqining og'zaki ijodi tilning rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelgan.

Albatta, o'zbek tili hozirgi davrda jahon minbarlarida yangramoqda. Uning rivojlanishi va shakllanishi, shubhasiz, bir necha omillarga bog'liq. O'zbek tilining rivojlanish istiqboli, o'zbek tilining rivojlanishi uchun bugungi kundagi dolzarbligi bilan quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi: Ta'lim tizimida o'zbek tilida ta'lim berishni yanada takomillashtirish kerak. Texnologik jihatidan raqamli muhitda o'zbek tilini rivojlantirish va qo'llash kerak. Yangi ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va o'zbek adabiyotini rivojlantirish lozim. O'zbek tilining taraqqiyoti davom etmoqda va bu jarayonda ishtirok etish bilan bir qatorda uni qo'llab-quvvatlash har birimizning burchimiz ekanligini unutmasligimiz ham kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latjon Qayumov. "Tazkirai Qayumiy" /Mas'ul muharrir: L. Qayumov/. -T;" O'zRFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi" 1999. 720-bet.
2. Laziz Qayumov. Qo'qon fozillari. – Qo'qon. 2006. 3. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X– XIX asrlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1993,
3. Mahbuba Qodirova. Nodira "Devoni"Oz.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti. Toshkent-1963-yil.620-bet.
4. Mahbuba Qodirova She'riyat va muhabbat malikasi;Risolasi.\Mas'ul muharir: S. Hasanov|. -T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashri, 1998.-122 b.
5. Nodira Ey sarvi ravon:G'azallar (Nashrga Tayyorlovchi va so'zboshi muallifi M.Qodiriva; Mas'ul muharir A.Qayumov)-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.-144 b.
6. Malikaxon Nurutdinova. "Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda Umarxon va Nodira haqida ma'lumotlarning kelishi". //Til va adabiyot



ta'limi.(OAK Rayosatining O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014- yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan). jurnal Toshkent, 2024.8-son. 47-49 betlar.

7. Malikaxon Nurutdinova. “Nodira ijodining o'rganilishi tarixidan”// O'zbekiston Milliy axborot agentligi – O'zA Ilm-fan bo'limi (elektron jurnal). (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan). 2024-yil aprel oyi soni №4 (54). 150-154 betlar.